

## **INNOVATSİYAGA TAYANGAN DAVLAT**

**Fayzullayeva Klara Abdullayevna**

Jizzax politexnika instituti “ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

[Fayzullayeva@mail.ru](mailto:Fayzullayeva@mail.ru)

**Yaxyoeva Nigora Zafar qizi**

Jizzax politexnika instituti Servis fakulteti talabasi

[kichkintoy2002@icloud.com](mailto:kichkintoy2002@icloud.com)

“Innovatsiya — bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g’oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g’oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.

**Shavkat Mirziyoev.**

Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda.

O‘tgan davrda fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida zarur infratuzilma yaratildi, muayyan intellektual va texnologik salohiyat shakllantirildi.

Aynan, ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish, O‘zbekiston Respublikasini jadal rivojlantirish muhim sharti hisoblanadi.

A.I.Prigojning fikriga ko‘ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg‘un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o‘rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o‘ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi. Amerikalik psixolog E.Rodgers o‘z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish,

mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini<sup>[46]</sup> o'rgangan.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadi, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" dasturlarida, ilm – fanni maqsadli rivojlantirishga alohida urg'u berilgan.

Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi hamda Konsepsiyaning maqsadli, ko'rsatkichlari va indikatorlari tasdiqlandi. Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining strategik maqsadi etib milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion va yuqori texnologik formatiga o'tish, mamlakatimizning raqobatdosh ustunliklarini ishga solish va to'g'ri safarbar etish, innovatsion mahsulotlar hajmini kengaytirish, jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yo'nalishlarga investitsiyalarni yo'naltirish, aholi turmush darajasini bir necha bor yaxshilash, ijtimoiy sohadagi dolzarb masalalarning innovatsion yondashuvga hamda ilmiy tadqiqotlar va erishilgan natijalarga asoslangan ilmiy echimini topish, xalqaro miqyosda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish maqsad qilingan. Maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

a) ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida:

ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligini baholashga yo'naltirilgan milliy reyting tizimini joriy etish;

ilm-fanda o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali davlat va ilmiy tashkilotlar o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda uning doirasida loyihalarni amalga oshirish;

b) ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash borasida:

<sup>46</sup> Innovatsion ta'lif texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B.–T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.–150 b.

2025 yilga qadar ilm-fanga yo'naltiriladigan jami mablag'larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030 yilgacha esa 10 baravarga oshirish;

2025 yilga qadar ilm-fanni umumiylashtirish hajmida ilmiytadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag'lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030 yilgacha esa 30 foizga etkazish;

innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy etakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda 2021 yilda 2 ta, 2025 yilda 10 ta vechur jamg'armalarini tashkil qilish;

v) yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida:

ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o'rtacha yoshini 2025 yilga qadar 45 ga, 2030 yilgacha esa 39 ga etkazish;

2025 yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiylashtirish sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030 yilgacha esa 3 baravarga<sup>[47]</sup> oshirish;

g) ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida;

2025 yilga qadar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiylashtirish hajmida tashkilotning o'z kuchi bilan bajarilgan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushini 3,5 baravarga, 2030 yilgacha esa 9 baravarga oshirish, ko'zda tutilgan.

Ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini 2021 — 2023 yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning maqsadli parametrlariga erishish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ham tasdiqlandi.

Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyanining strategik maqsadi etib milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion va yuqori texnologik formatiga o'tish, mamlakatimizning raqobatdosh ustunliklarini ishga solish va to'g'ri safarbar etish, innovatsion mahsulotlar hajmini kengaytirish, jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yo'nalishlarga investitsiyalarni yo'naltirishda yoshlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugun yurtimiz aholisining 60 foizini tashkil etadigan yoshlar orasida iqtidorlilar ko'p. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zamirida esa mustaqil, o'z g'oyalari bilan yurtimiz va jahon maydonida munosib o'rin egallay oladigan shaxslarni tarbiyalash yotadi. Zero, ana shunday yoshlar

<sup>47</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T., "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B. 168.

Yangi O'zbekiston kelajagini buniyod etish yo'lida shahdam qadam tashlashni boshladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'lif tizimida innovatsiyalarni joriy etilishi esa, jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholi turmush faravonligini oshirish, ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida o'zining muhim o'rniiga egadir.

Bu esa, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi etakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Innovatsion faoliyat to'g'risida". 2020 yil 24 iyuldagি O'RQ-630-sonli.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T., "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B. 168.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son Farmoni.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2017. 244 b.
5. Innovatsion ta'lif texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B.–T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.–150 b.
6. Saydaxmedova Z.D, Axmedova D.X "Globallashuv sharoitida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni". "Xalqolro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnalı №3,iyun,2018 yil.-9 b.
7. Fayzullayeva K. A. YANGI O 'ZBEKISTONDA TURIZIM //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 619-624.
8. Файзуллаева К. А. ТАРИХИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ТҮФРИ МУНОСАБАТНИ ШАКЛААНТИРИШ //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2019. – С. 111.

9. Abdullayevna F. K., Qizi R. S. D. F. AFG 'ONISTON MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNING KAFOLATI //'' ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2023. – T. 1. – C. 479-482.
10. Abdullayevna F. K. THE HISTORY OF SPECIAL CAMPS IN GERMANY DURING THE SECOND WORLD WAR //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2022. – T. 3. – №. 01. – C. 1-5.
11. Файзуллаева К. Реформы в сфере образования.//Вестник НУУз.Тошкент-2024.-1/11/1. –С. 71-73.
12. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.
13. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(3), 37-40.
14. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТАЛИ ЯШАЙДИ. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 464-469.
15. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАҲНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 351-355.
16. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2023). MA'NAVIYAT JAMIYAT HAYOTINING JONI VA RUHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 503-506).
17. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(1), 161-168.
18. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 225-229.
19. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is " Audit Report and its Contents". Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 991-997.